

ALIFBODAGI YANGI ISLOHOTLAR

N.Quldashev

FarDU, tilshunoslik kafedrasi mudiri (Phd)

Madinaxon Rahmatova

FarDU, O'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Keywords: alphabet, letter, changes, reforms, writing, spelling, illiteracy, sign.

Annotation

In this article, the new alphabet reform, decrees and decrees about the new alphabet, changes in the alphabet, why this reforms is needed by the society, positive and negative sides, useful aspects of the new alphabet, the negative sides are inappropriate.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Biz bugungi kunda Yangi O'zbekiston jamiyatida yashamoqdamiz. Mamlakatimizni yana-da rivojlantirish maqsadida jamiyatimizda yangidan yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari har sohaga e'tibor berganidek, hozirda ta'lim, fan, madaniyat tizimlariga ham alohida e'tibor berib kelmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida davlat tili o'zbek tili hisoblanadi. Yozuvda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidan foydalanib kelmoqdamiz. Hozirda axborot asrida yashayotganimizni inobatga olsak, insonlar hayotini telefon va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish qiyin vazifaga aylanmoqda. Sababi ijtimoiy tarmoqlar hayotning bir bo'lagiga aylanib ulgurdi, desak mubog'ala bo'lmaydi. So'zlashuv jarayonida qisqa va lo'ndalikni sevgan xalqimiz telefondan foydalanishda ham qisqa yozishga intilmoqdalar va buning natijasida ularning imlosida ko'p xatolar uchrab turmoqda. Masalan, buni alifbomizdagi harfiy birikmalar misolida ko'rib chiqsak. *Sh* harfini yozishda inglizcha *w* harfi orqali ifodalash, *ch* harfini esa faqatgina *c* harfi bilan ifodalash, yozuvdagi o' harfini esa belgisiz yoki ayrim o'rinlarda tutuq belgisi orqali holatlari kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari yozuvdagi nutqlarini qisqa qilish maqsadida ba'zi qo'shimchalarni belgilar orqali ifodalash holatlari ham uchrab turibdi. Misol uchun, *-ning* qo'shimchasi o'rnida teng belgisi (=), *-dan* qo'shimchasi o'rnida qo'shuv belgisi (+) va shu kabilardir. Yozuvda shu kabi e'tiborsizlikni va xatolarni yo'qotish maqsadida alifboga ba'zi o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanda rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-son "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan alifboni takomillashtirishning huquqiy asosi yaratildi. Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 5-iyul kuni Toshkent shahri saylovchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda alifbomizni isloh qilish bo'yicha bildirgan takliflari asosida ishchi guruh tomonidan takomillashtirilgan alifbo loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur uchrashuvda davlatimiz rahbari

quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "...Keyingi paytda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ayni paytda oldimizda yangi yanada muhim vazifalar turibdi. Jumladan, ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimiz bilan bamaslahat, lotin yozuviga asoslangan alifbomizni takomillashtirish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazishimiz zarur"¹.

Taklif etilayotgan yangi alifbo namunasi quyidagicha:²

Lotincha			Kirill	Lotincha			Kirill
Bosma	Yozmasi	Talaffuzi	Harflar	Bosma	Yozmasi	Talaffuzi	Harflar
A a	<i>Aa</i>	<i>a</i>	А а	Ō ō	<i>Ōo</i>	<i>ō</i>	Ŷ ŷ
B b	<i>Bb</i>	<i>be</i>	Б б	P p	<i>Pp</i>	<i>pe</i>	П п
D d	<i>Dd</i>	<i>de</i>	Д д	Q q	<i>Qq</i>	<i>qe</i>	Қ қ
E e	<i>Ee</i>	<i>e</i>	Э э	R r	<i>Rr</i>	<i>re</i>	Р р
F f	<i>Ff</i>	<i>fe</i>	Ф ф	S s	<i>Ss</i>	<i>se</i>	С с
G g	<i>Gg</i>	<i>ge</i>	Г г	Ş ş	<i>Şs</i>	<i>şe</i>	Ш ш
Ġ ġ	<i>Ġġ</i>	<i>ġe</i>	Ғ ғ	Ç ç	<i>Çc</i>	<i>çe</i>	Ч ч
H h	<i>Hh</i>	<i>he</i>	Х х	T t	<i>Tt</i>	<i>te</i>	Т т
I i	<i>Ii</i>	<i>i</i>	И и	U u	<i>Uu</i>	<i>u</i>	У у
J j	<i>Jj</i>	<i>je</i>	Ж ж	V v	<i>Vv</i>	<i>ve</i>	В в
K k	<i>Kk</i>	<i>ke</i>	К к	X x	<i>Xx</i>	<i>xe</i>	Х х
L l	<i>Ll</i>	<i>le</i>	Л л	Y y	<i>Yy</i>	<i>ye</i>	Й й
M m	<i>Mm</i>	<i>me</i>	М м	Z z	<i>Zz</i>	<i>ze</i>	З з
N n	<i>Nn</i>	<i>ne</i>	Н н	ng	<i>ng</i>	<i>nge</i>	нг
O o	<i>Oo</i>	<i>o</i>	О о	,	,	<i>Tutuq b.</i>	ь

Aslida, nima uchun alifboga o'zgartirish kiritmoqdamiz? Uning zaruriyatlarini nimalardan iborat?

Birinchiidan, hozirgi alifbomizdagi o' va g' harflarini komputer yoki telefonda yozish uchun bir qancha ortiqcha amallarni bajarish lozim bo'ladi. Bunday ortiqcha amallardan qochish yoki ko'pincha o', g' harflaridagi ' belgini – apostrof (tutuq belgisi) deb tushunish natijasida O'zbekiston, o'zbek, o'lka, g'ayrat, g'alaba, g'olib kabi imloviy xatolar juda ko'payib ketmoqda.

Ikkinchiidan, ushbu harflar yuzasidan ona tili fanida urg'u bo'yicha ham bir qancha kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Masalan, urg'u tushgan bo'g'in tarkibida o' va g' harflari mavjud bo'lsa, bu harflardagi belgi (') bilan urg'u belgisi ketma-ket joylashadi. Bunda so'zni va urg'uli bo'g'inni ajratib olish qiyinlashadi.

Uchinchiidan, mo'tadil, mo'jiza, mo'tabar, mo'jaz so'zlarining tutuq belgisi qo'yilmasdan yozilishi "Imlo qoidalariga" kiritilgan istisnolardan biridir. Aslida, bunday so'zlar imloviy xato hisoblanadi.

To'rtinchidan, o'zbek tilidagi Is'hoq, As'hob so'zlarini to'g'ri yozish uchun s va h harflari orasiga

¹ <https://oz.sputniknews.uz/20230925/yangi-alifbo-loyiha-39283728.html>

² O'zbekiston Respublikasi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqidagi QL-238/21-2 – Qaror

tutuq belgisi qo'yilishi kerak bo'ladi. Bu holat ham amaldagi alifboni o'zlashtirishda, ayni alifboda to'liq ish yuritishda yana qiyinchilik tug'diradi. Bu qoidani bilmaslik oqibatida Is'hoq, As'hobiddin ismlarining Ishoq, Ashobiddin tarzida yozilishidek nodurust holatlar ko'paymoqda.

Loyihada shu kabi murakkabliklarni va xatoliklarni keltirayotgan harflarga quyidagicha o'zgartirish kiritildi:

Sh	Ş
Ch	C
O'	Õ
G'	Ğ

Har bir o'zgartirilayotgan harfning o'ziga xos ijobiy jihatlari mavjud. Masalan, **Ch ch harfining C c tarzida yozilishi:**

1. Bu harf 1929-1940-yillardagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham mavjud bo'lib, hozirgi ch harfini ifodalagan;
2. Bu harf hozirgi ch harfining tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ham aholi uchun o'rganilishi oson bo'ladi;
3. Ushbu harf boshqa ko'plab xalqlar tilida ham mavjud (masalan, italyan).

Sh sh harfining Ş ş tarzida yozilishi:

1. Bu harf 1929-1940-yillar va 1993-1995-yillardagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham hozirgi Sh harfini ifodalagan;
2. Bu harf boshqa turkiy xalqlar alifbosida ham foydalaniladi (masalan, turk, ozarbayjon) hamda aksar shriftlar tarkibida ham mavjud.

G' g' harfining Ğ ğ tarzida yozilishi:

1. Bu harf 1993-1995-yillardagi o'zbek alifbosida ham mavjud bo'lgan va insonlarga ancha tanish;
2. Bu harf hozirgi g' harfining yozma shakliga o'xshash bo'lganligi uchun aholi tomonidan oson qabul qilinadi;
3. Bu harf boshqa turkiy xalqlar alifbosi tarkibida ham mavjud, aksar shriftlarda ham bu harf bor.

O' o' harfining Õ õ tarzida yozilishi:

1. Bu harf amaldagi yozma shakl bilan bir xil bo'lib, aholi uni qabul qilishda qiyinchilikka uchramaydi;
2. Bu harf eston, portugal va boshqa xalqlar alifbosida mavjud va aksar shriftlar tarkibida uchraydi.

Ba'zi insonlar fikriga ko'ra, alifbodagi o'zgarishlar amalga oshirilganda katta mablag' sarflanadi va insonlar orasida savodsizlikni keltirib chiqaradi.³ Aslida, kitoblar, passport, hujjatlar, pul banknotalari, ko'chadagi belgilar va boshqa joydagi yozuvlar birdaniga almashtirilganda katta mablag' talab etadi. Lekin bular bittada almashtirishi shartmi?⁴ Avval, mablag' masalasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu o'zgarishlar unchalik katta xarajat talab qilmaydi. Masalan, hozirda kirill va lotin yozuvidagi pullar, kitoblar amalda hech qanday qarshiliksiz foydalanilmoqda. Alifboga o'zgartirish kiritilib, amalda foydalanishga topshirilganidan so'ng, darsliklar ham, pasportlar ham o'z vaqti kelganida o'zgartirilgan alifbo bilan ifodalanib yozilishi mumkin. Ungacha hozirgisi o'z kuchida bo'laveradi. Boshqa yo'l belgilari va hujjatlar ham o'z vaqti kelganida almashtirilishi mumkin.

Insonlarning alifboga o'zgartirish kiritish savodsizlik keltirib chiqarishi haqidagi fikrlari ham o'rinsiz. Chunki, alifboda faqatgina to'rtta harf o'zgartirilmoqda, butunlay alifbo almashtirilayotgani yo'q.

³ <https://t.me/xushnubek/21379>

⁴ <https://t.me/xushnubek/22386>

Yurtimizda 1929-yilda arab yozuvidan lotin yozuviga, 1940-yilda lotin yozuvidan kirill yozuviga o'tilgan. Shu davrda insonlarda ma'lum ko'rinishda savodsizlik kelib chiqqan. Lekin hozirgi vaziyatda hamma uchun tanish harflar almashtirilmoqda. Bu hech qanday savodsizlik keltirib chiqarmaydi va bunday hadiklarga o'rin yo'q.

Nima bo'lganida ham, alifboga kiritilayotgan o'zgartirishlar ijobiy maqsadlarni ko'zlagan holda o'ylab chiqilgan. Aholi orasida hech qanday muammo keltirib chiqarmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z.Res. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqidagi QL-238/21-2 – qaror
2. <https://oz.sputniknews.uz/20230925/yangi-alifbo-loyiha-39283728.html>
3. N. Rasulova. "Ona tilidan ma'ruzalar" Toshkent. "Nurafshon ziyo yog'dusi" 2017, birinchi kitob
4. <https://t.me/xushnadbek/21379>
5. <https://t.me/xushnadbek/22386>
6. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2019-yil.